“Sarimoy-Muruntov” elektr liniyasi

Mamlakat:	O’zbekiston
Loyiha raqami:	54421
Biznes sektor:	Energy Eurasia MEA
Bildirishnoma turi:	Davlat
Ekologik toifasi:	A
Taxminiy Tasdiqlah Sanasi:	24 Iyul 2024
Holati:	O’rganilmoqda
Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana:	21 May 2024

Loyiha mazmuni

Bank Xorazm viloyatining Sarimoy va Navoiy viloyatining Muruntov aholi punktlari o‘rtasida 230 km uzunlikdagi 500 kV havo elektr uzatish liniyasi qurilishni (Loyiha) moliyalashtirish uchun 80 million AQSh dollarigacha kredit ajratishni mo‘ljallagan. Loyiha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o’rinlarda “O‘zbekiston MET”) tomonidan amalga oshiriladi.

Loyiha maqsadi

Loyihani amalga oshirish elektr uzatish tarmog‘ining ishonchliligi, samaradorligi va barqarorligini, shuningdek, elektr ta’minoti sifati va xavfsizligini oshiradi. Elektr uzatish liniyasi O‘zbekiston energetika tizimining ikki xil energetika hududini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi: ulardan biri mamlakatdagi qayta tiklanadigan energiya salohiyati yuqori bo‘lgan va elektr uzatish quvvati cheklangan chekka joydagi shimoli-g‘arbiy hudud, ikkinchisi esa janubi-g‘arbiy hudud. Loyiha, shuningdek, energetika yukini muvozanatga keltirish va uzatish tarmog‘idagi tirband joylarni to‘g‘rilashga yordam beradi.

O‘tish davri ta‘siri

ETI 64

Loyiha Yashil va Barqaror samarali boshqarish tasniflariga hissa qo‘shishi kutilmoqda. Loyiha shimoliy-g‘arbiy va janubi-g‘arbiy energetika hududlarida ishlab chiqariladigan qayta tiklanadigan energiya stansiyalarining elektr energiyasini samarali tarqatishga yordam beradi. Loyihaning amalga oshirilishi tizimdagi yo‘qotishlarni kamaytirish orqali mamlakat elektr uzatish tarmog‘ining ishonchliligi va

barqarorligini ham mustahkamlaydi.

Mijoz haqida

O’zbekiston Respublikasi
O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (”O‘zbekiston MET”) - O‘zbekistonning yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘iga mas’ul bo‘lgan davlat energetika korxonasidir.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘lar

80 000 000,00 AQSh dollari

Loyihaning umumiy qiymati

80 000 000,00 AQSh dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Loyiha A toifasiga kiritildi (ESP 2019). Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasining qurilishi ehtimoliy muhim ekologik va ijtimoiy ta’sirlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va u YTTBning Ekologik va ijtimoiy siyosati (“ESP”), milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘liq Loyihaning atrof va ijtimoiy muhitga bo‘lgan ta’sirini baholash (“ESIA”) o‘tkazishni talab qiladi.

Mavjud texnik ma’lumotlar va qo‘shimcha tadqiqotlar asosida ekologik va ijtimoiy ta‘sir bo‘yicha mustaqil maslahatchi tomonidan Bankning loyiha talablariga muvofiq ESIA hisobot paketi tayyorlandi. Elektr uzatish liniyalari uchun Ekologik va ijtimoiy ekpertiza (”ESDD”) o‘tkazildi va uning natijalari asosida Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasida (”ESAP”) Ishlab chiqildi. Ingliz (EN), rus (RU) va o‘zbek (UZ) tillaridagi Notexnik xulosani (”NTS”) o‘z ichiga olgan ESIA va qo‘shimcha paket, Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (”SEP”), Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP), Yerni tasarruf qilish va aholini ko‘chirish mexanizmi (”LARF”) 2024-yil 27-martda YTTB veb-saytida YTTB Kengashi tomonidan ko’rib chiqilishidan oldin 120 kunlik maslahat davri uchun nashr qilindi. Bugungi kungacha manfaatdor tomonlar hech qanday masala bo‘yicha shikoyat qilmadi. Loyiha O‘zbekistonning qonunchilik talablariga muvofiq alohida milliy Ekologik ta’sirni baholash (1-bosqich ”OVOS”) jarayonidan o‘tkazilgan va ijobiy xulosa olgan.

Loyiha Sarimoy (Xorazm viloyati) va Muruntov (Navoiy viloyati) aholi punktlari orasidagi 230 km uzunlikdagi 500 kV havo elektr uzatish liniyasini qurishdan iborat. Loyihaning amalga oshirilishi elektr uzatish tarmog‘ining ishonchliligi, samaradorligi va barqarorligini, shuningdek, elektr ta’minoti sifati va xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Loyiha mamlakat elektr uzatish tarmog‘iga mas’ul davlat energetika kompaniyasi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ (“O‘MET”) tomonidan amalga oshiriladi. Qurilish va ishga tushirish jarayonida yuzaga keluvchi asosiy potensial ta’sirlar bioxilma-xillik (yashash muhitini yo‘qotish, yo‘q qilish va turlarning yashashiga halaqit berish), chang va gaz emissiyasi natijasida havo sifatining yomonlashishi, shovqin, tuproqning buzilishi va yo‘qolishi, materiallar iste’moli, ifloslanishni nazorat qilish (zararli moddalar) va chiqindi chiqarish, tirikchilik manbaini yo‘qtish, ishchilar hamda aholining salomatligi va xavfsizligi (shu jumladan, yo‘l harakati xavfsizligi), ishchi kuchining mehnat sharoitlarini boshqarish kabilardan iborat bo‘lib, farovonlik va iqlim xatarlari infratuzilma va ishchilarning sog‘lig‘i uchun iqlim bilan bog‘liq jismoniy xavflarni (chang bo‘ronlari va havo harorati) o‘z ichiga oladi.

Ta’sirlarni maqbul darajaga kamaytirish bo‘yicha majburiyatlar va ularni amalga oshirish uchun asoslar ESAPda, jumladan, iqlimga chidamli dizayn tanlovlari va favqulodda vaziyatlarga javob chora-tadbirlari rejasida ko‘rsatilgan.

Elektr uzatish liniyalari, asosan, Qizilqum cho‘lining qurg‘oqchil yashash joylaridan o‘tib, uning sharqiy yarmida barqaror tuproqli cho‘l jamoalari va tog‘lar, g‘arbiy yarmida esa qumli cho‘l joylashgan. Loyiha xalqaro tan olingan asosiy bioxilma-xillik hududlari (”KBA”) yoki qonuniy muhofazadagi hududlardan (”LPA”) uzoqda amalga oshiriladi va eng yaqin KBAdan kamida 10 km, eng yaqin LPAdan esa kamida 3 km masofa uzoqlikda bo‘ladi. Loyiha YTTBning PR 6 va XMKning PS 6 talablarida ta’riflangan muhim yashash muhitlariga (”CH”) halaqit bermaydi va YTTB PR 6 talablariga muvofiq, 24 ta ustuvor bioxilma-xillik obyektlari (”PBFs”), jumladan, uchta o‘simlik turi, ikkita sudralib yuruvchilar turi, 14 ta qush turi, uchta sutemizuvchilar turi va qushlarning ikkita multitakson guruhini aniqladi. Loyiha butun liniyada “yirtqichlar uchun xavfsiz” dizaynlarni tanlash, liniyaning suv qushlarining to‘qnashuvi xavfi yuqori bo‘lgan barcha qismlarida qushlar parvozini o‘zgartiruvchi qurilmalarni o‘rnatish hamda qurilish bosqichidagi bioxilma-xillikka ta’sirni yumshatish bo‘yicha an‘anaviy chora-tadbirlarga qo‘shimcha ravishda qurilishdan oldingi so‘rovnomalar, sezgir o‘simliklar va sudraluvchilarni qutqarish hamda boshqa joyga ko‘chirish chora-tadbirlari orqali bioxilma-xillikka ta‘sirni yumshatish iyerarxiyasi darajalari va yaxshi xalqaro amaliyotga (“GIP”) muvofiq tabiatga ta‘sirni kamaytiradi. To‘qnashuv yoki elektr toki urishi natijasida nobud bo‘lgan va bularning oqibatida zarar ko‘rishi mumkin bo‘lgan qushlarning barcha turlari GIPga muvofiq tuzilgan protokolga ko‘ra elektr uzatish paytida monitor qilinadi va “sof yo‘qotish yo‘q” chegarasidan yuqori bo‘lgan PBSslarga zarar qo‘shimcha yumshatish choralari bilan kompensatsiya qilininishini ta’minlash maqsadida moslashuvchan boshqaruv tizimi joriy etiladi. Barcha majburiyatlar ESAPda belgilab qo‘yilgan va ular bioxilma-xillikni boshqarish rejasida (“BMP”) yoritib beriladi. Loyiha sof yo‘qotish yo‘qligi bo‘yicha PR 6 talablariga javob bera oladi deb hisoblanadi.

Elektr uzatish liniyasi yo‘nalishi bo‘ylab 60 metr radiusda hech qanday jismoniy obyekt yoki turar-joylar mavjud emas. Minora tayanchlari uchun doimiy yer olish jarayonida ba’zi tirikchilik manbalarini ko‘chirishga to‘g‘ri keladi va bu loyiha hududida yer huquqiga ega bo‘lgan beshta xususiy fermer xo‘jaligi uchun tegishlidir. Yer huquqiqa ega bo‘lgan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash tizimi O‘zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan LARFda belgilab berilgan. LARF, shuningdek, LT5 talabini qondirish uchun tirikchilik manbalarini tiklash choralarini ham o‘z ichiga oladi. Agar yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning Loyiha qurilishi natijasida yerdan foydalanish imkoniyatlari cheklansa, ular kompensatsiya (jumladan, yo‘qotilgan foyda) olish huquqiga ega. Mijoz tirkchilik manbalarini ko‘chirish ta’sirini yumshatish uchun LARF va PR 5 talabiga muvofiq tirikchilik manbalarini tiklash rejasini (”LRP”) tayyorlaydi va amalga oshiradi. Liniyani ishga tushirish bosqichda tirikchilik bilan bog‘liq muammolar kutilmaydi.

Elektromagnit maydonlar (”EMF”) darajalari havo liniyasidan 30 m masofada (yo‘ldan o‘tish huquqi doirasida) maqbul darajalarga tushadi, ya’ni barcha mulk obyektlari ta’sir zonasidan ancha uzoqda bo‘ladi. Chorvadorlar va fermerlar liniya tagida o‘z chorvasini o‘tlatish va ekin ekishda davom etishlari mumkin.

Qurilish vaqtida pudratchi xodimlari va aholining salomatligi hamda xavfsizligiga ta‘sirlar hisobga olinishi kerak. Tanlangan pudratchi loyihani yakunlash uchun yetarli ishchi kuchi va jihozlarga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, xavflarni bartaraf etish yoki ishchilar salomatligi va xavfsizligi uchun xavflarni kamaytirish maqsadida boshqaruv tartiblari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish talab qilinadi. Pudratchining ishchi kuchi YTTB/XMKning ishchilarni joylashtirish bo‘yicha yo‘riqnomasi talablariga muvofiq loyihalashtiriladigan va quriladigan vaqtinchalik turar-joylarga joylashtiriladi. ESAP, shuningdek, pudratchi uchun LT2 talabiga muvofiq inson resurslari (”HR”) tartib-qoidalarini, gender bilan bog‘liq zo‘ravonlik va ta’qib bo‘yicha talablardan iborat kamsitishlarga qarshi siyosatni qabul qilish

majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ish joyida doimiy ravishda mehnat monitoringi ham olib boriladi.
ESAPda ko‘rsatilganidek, HLning ba’zi qismlarida qurilish oldidan arxeologik tadqiqotlar va tasodifiy topilmalar amaliyotini amalga oshirish talab etiladi. Har qanday topilmaning oldini olish yoki GIPga muvofiq hal qilish mumkin deb hisoblanadi.

Loyihaning qurilish bosqichida kichik miqdordagi ish o‘rinlari yaratilishi, mahalliy xaridlar va yuqori mahalliy xarajatlar kutilishi mumkin. E&I ta’sirlar Uzunquduq, Sarimoy va Nukus qishloqlaridagi mahalliy odamlarga, yer huquqi egalariga, yerdan foydalanuvchilarga (cho‘ponlarga) va Loyiha ishchilariga ta’sir qilishi mumkin.

Loyiha uchun Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (”ESAP”) ishlab chiqilgan va loyihaning YTTB PRlariga javob beradigan shaklda tuzilganligini ta’minlash uchun mijoz bilan kelishilgan. ESAP quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Ekologik, ijtimoiy, salomatlik va xavfsizlik masalalarini boshqarishning mustahkam tizimini ishlab chiqish va joriy etish, pudratchilarni boshqarish, shu jumladan, mehnatni boshqarish amaliyoti, xavfsizlik amaliyotlarini takomillashtirish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, Tirikchilik manbalarini tiklash rejasini ishlab chiqish, ishchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun PR 2 talabiga moslashtirilgan rasmiy HR siyosati va shikoyat mexanizmlarini yaratish, jamiyat salomatligi va xavfsizligi, madaniy merosni himoya qilish uchun bioxilma-xillikni saqlash va tasodifiy topilmalarni himoya qilish tartib-qoidalari.

Mijoz 2023-yilning oktabridan 2024-yilning yanvarigacha E&S bo‘yicha maslahatchi ko‘magida 10 ta shahar va qishloqlarda jamoatchilik bilan maslahat uchrashuvlarini o‘tkazdi, ularda ko‘pchilik ishtirok etdi. Loyiha qachon boshlanishi, pudratchi/subpudratchilar va mahalliy ishchilar uchun ish o‘rinlari, liniyadan foydalanish imkoniyatlari haqida savol-javoblar bo‘ldi. Shu paytgacha o‘tkazilgan maslahat uchrashuvlarining batafsil sarhisobi, shuningdek, bo‘lajak tadbirlar SEPda keltirilgan.

Bundan tashqari, Loyihaning Bank talablariga hamda kelishilgan ESAP va ESMPga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish uchun Loyihani amalga oshirish guruhi (”PIU”) tashkil etiladi. Bank yillik E&S hisoboti, ESAPni amalga oshirish jarayoni va kerak bo‘lsa, Loyiha obyektiga kuzatuv tashriflari orqali Loyihaning amalga oshirilishini yaqindan kuzatib boradi.

Texnik ko‘mak

Loyihani tayyorlash va amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun Texnik hamkorlik (”TC”) mablag‘lari so‘ralishi mumkin.
Qo‘shimchalilik sharti YTTB ushbu infratuzilma loyihasi uchun mahalliy bozorda mavjud bo‘lmagan shartlarda uzoq muddatli moliyalashtirishni ta‘minlaydi.

YTTB loyiha maqsadlarini o‘z vaqtida amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan tajriba, innovatsiyalar, bilim va/yoki ko‘nikmalarni taqdim etadi, jumladan, mijozning salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma’lumot

Islombek Saparmatov
piu.sarimay.muruntau@gmail.com
+998 71 236-68-08
www.uzbekistonmet.uz
O‘zbekiston, Toshkent shahar, 100084, Yunusobod tumani, Osiyo ko‘chasi, 42

O‘tish davri nima

O‘tish davri ta’sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.
YTTB bilan (xaridlarga oid bo’lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog’laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com
Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so‘rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o’zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo’lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo’llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko’rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o’z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko’lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug’ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo’shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko’rilishini talab qiladi.
Bu sohada YTTBning tajribasi bo’yicha qo’shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko’maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg’or xalqaro tajribalarga muvofiq bo’lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo’lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo’l qo’yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko’ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.
OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste’mol qilish bo’yicha ma’lumotni tekshiruvchi mas’ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo’lsa,

u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig‘iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma’lumotlar tegishli choralar ko’rish uchun OCCO tomonidan ko’rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko’rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma’lumotlar yaxshi niyatni ko’zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko’maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma’lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma’lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga o‘ting.
Muayyan savollaringizni YTTBning ma’lumot so‘rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog’liq shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o’zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo’lgan urinishlari samarasiz bo’lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya’ni loyihalar bilan bog’liq shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o’zlarining o’sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.
Loyihalar bilan bog’liq shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko’ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo’lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo’yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro aloqalarni o’rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug’ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko’riladigan choralarini ko’zda tutish.
IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma’lumot olish, ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladigan shikoyatlarni jo‘natish uchun Loyihalar bilan bog’liq shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo‘shimcha ma’lumot olish va shikoyat jo‘natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog‘lanishingiz mumkin.